Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services.....	932
Makhmudova UgiLOY Baxtiyarovna	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
Chakkanov Faxriddin Xusanovich	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
Irgashev Shokhrukh Khasanovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
Almatova Umida Islomovna	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
Nosirova Shohista Elmurodovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
Sh. D. Ablakulov	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
Ismoilov Bobur Toxirovich	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
Ismailov Murodulla Kahramonovich	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
Avazova Farangiz Ixtiyor qizi	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi..... 1022 <i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish 1026 <i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>
	Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish..... 1030 <i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>
	Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi 1035 <i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>
	Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv 1040 <i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>
	Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari 1043 <i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>
	Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish 1047 <i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>
	Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli..... 1051 <i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>
	Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari 1055 <i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>
	Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati 1060 <i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi 1064 <i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>
	O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati..... 1070 <i>Nortojiyev Muxammad</i>
	Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari 1073 <i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>
	O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati 1078 <i>Achilov Obid Muzrobovich</i>
	Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi..... 1083 <i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>
	Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida..... 1087 <i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>
	"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi 1093 <i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>
	Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration..... 1096 <i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni 1101 <i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>
	Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida 1105 <i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>
	Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri 1110 <i>Djabbarov Axror Islomovich</i>
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish 1114 <i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>
	O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish 1118 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi..... 1123 <i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darolarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



ALALIYALI BOLALAR BILAN LOGOPEDIK ISHNING TIZIMLI YONDASHUVI

Irkinova Irodaxon Temirovna

Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo'nalishi MSPD-2U talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alaliya og'ir nutqiy rivojlanmaganlikning murakkab shakli sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada alaliyali bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning tizimli va kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi, ushbu jarayonning bolalarning psixik, emotsional, harakat va nutqiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri yoritilgan. Nutqni shakllantirish jarayonida predmetli-amaliy faoliyat, multimodal metodlar, individual va differensial yondashuv, o'yin texnologiyalari hamda psixopedagogik yordamning samaradorligi asoslab berilgan. Maqola logopediya, defektologiya va maxsus pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun metodik ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: alaliya, logopediya, nutqiy rivojlanmaganlik, korreksion metodlar, nutqiy faoliyat, differensial yondashuv, psixopedagogik yordam, multimodal yondashuv, o'yin texnologiyalari.

Abstract: This article examines alalia as a complex form of severe speech underdevelopment from both theoretical and practical perspectives. It highlights the organization of speech therapy interventions for children with alalia based on systematic and comprehensive approaches, as well as their positive impact on the psychological, emotional, motor, and speech development of the child. The effectiveness of object-based practical activities, multimodal methods, individualized and differentiated approaches, play-based technologies, and psychopedagogical support in the process of speech formation is substantiated. The article holds methodological value for specialists in the fields of speech therapy, defectology, and special education.

Key words: alalia, speech therapy, speech underdevelopment, correctional methods, speech activity, differentiated approach, psychopedagogical support, multimodal approach, play-based technologies.

Аннотация: В статье алалия рассматривается как сложная форма тяжёлого недоразвития речи с научно-теоретической и практической точек зрения. Освещается организация логопедической работы с детьми с алалией на основе системного и комплексного подходов, а также её положительное влияние на психическое, эмоциональное, моторное и речевое развитие ребёнка. Обоснована эффективность использования предметно-практической деятельности, мультимодальных методов, индивидуального и дифференцированного подходов, игровых технологий и психолого-педагогической помощи в процессе формирования речи. Статья представляет методическую ценность для специалистов в области логопедии, дефектологии и специальной педагогики.

Ключевые слова: алалия, логопедия, недоразвитие речи, коррекционные методы, речевая деятельность, дифференцированный подход, психолого-педагогическая помощь, мультимодальный подход, игровые технологии.

KIRISH

Alaliya tibbiy-psixologik va pedagogik jihatdan murakkab muammo hisoblanadi. Logopediya sohasida bu holat bola shaxsi va nutq rivojlanishiga yo'naltirilgan korreksion ta'sir usullari hamda tamoyillarini aniqlashni talab etadi. Tizimli va uzoq davom etuvchi logopedik ishlar ko'plab hollarda bolalarda nutqiy muloqot uchun yetarli vositalarning shakllanishiga xizmat qiladi, ayrim holatlarda esa nutqning ayrim elementlari rivojlanishi bilan cheklanadi. Nutqiy nuqsonning tabiatiga ko'ra, ushbu muammo motor va sensor alaliya shakllari asosida differensial tarzda hal etiladi.

Alaliyada nutqning shakllanishi har tomonlama yondashuvni talab etib, nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi hamda bilish faoliyatining yaxshilanishiga xizmat qiluvchi barcha nutq funksiyalarini rivojlantirishga qaratiladi. Nutq va shaxs rivoji ustidan yagona tizimli va kompleks ish olib boriladi hamda bunda ontogenez jarayonida nutqiy funksiyalar rivojlanishining qonuniyatlari hisobga olinadi. Tizimli logopedik ish nutqiy rivojlanishdagi uzilishlarni to'ldirishga, bolani maxsus dastur asosida maktab ta'limiga tayyorlashga yoki maktab ta'limi jarayoniga parallel ravishda ta'minlashga yo'naltiriladi. Mazkur jarayon shunday tashkil etiladiki, natijada

bolada o'quv faoliyatini o'zlashtirishga psixologik va nutqiy tayyorgarlik shakllanadi. Samarali logopedik ish psixonevrologik mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan davolash va rehabilitatsion choralar bilan uyg'unlikda olib borilgandagina yuqori natija beradi. Mashg'ulotlar davomida turli metod va usullardan kompleks tarzda foydalanilib, bolaning nutqiy imkoniyatlariga mos ravishda ishning mazmuni va vazifalari belgilanadi.

Olib boriladigan korreksion ishlar nutqiy faoliyat mexanizmlarini shakllantirishga qaratilib, muloqotga ehtiyoj, bayonning ichki rejasi, leksik-grammatik vositalarni tanlash va grammatik tuzilmaning rivojlanishi ta'minlanadi. Nutqiy tajribani boyitish maqsadida bilimlardan ongli foydalanish, nutqiy operatsiyalarni modellashtirish ko'nikmalari rivojlantiriladi. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.R. Luriya, A.V. Zaporozhets va P.Ya. Galperinlarning¹ ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning umumiy nazariyasi hamda uning genetik kelib chiqishi, tashqi predmetli faoliyat asosida ichki aqliy harakatlarning shakllanishi asoslab berilgan. Ushbu g'oyalardan kelib chiqib, logopedik ish jarayonida predmetli-amaliy faoliyatning korreksion imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Metodik usullarni qat'iy standartlash mumkin bo'lmay, nutqiy va didaktik materiallar bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va kompensator imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Korreksion ish davomida bolaning faqat nutqiy rivoji emas, balki nutqiy bo'lmagan faoliyati ham rivojlantiriladi. Nutq sensor rivojlanish va umumharakat faoliyati bilan o'zaro uyg'unlikda shakllanadi. Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, chizish, bo'yash, shtrixlash, mozaika va geometrik materiallardan foydalanish orqali koordinatsiya mustahkamlanadi. Tadqiqotlarda qo'l motorikasi rivoji bilan nutq rivoji o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligi ta'kidlanadi. Nutqning boshlang'ich bosqichlarida uning psixofiziologik asoslari shakllantirilib, bolada muloqotga ehtiyoj, nutqiy va psixik faollik, taqlid faoliyati rivojlantiriladi. Motivatsion bayon qilishning asoslarini yaratish, grammatik tuzilma va predikativ tizimni shakllantirish nutq rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tahlil, sintez, solishtirish, umumlashtirish kabi bilish jarayonlari rivojlantiriladi. Predmetlarni rangi, shakli va kattaligiga ko'ra farqlash, fazoviy-vaqt tasavvurlarini shakllantirish, harakatli o'yinlar orqali ko'ruv va fazoviy idrokni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirishda ritmika va logoritmika mashqlari, musiqa, so'z va harakat uyg'unligidan foydalanish samarali natija beradi. Mashg'ulotlar davomida leksik-grammatik material hajmi bosqichma-bosqich murakkablashib, nutq predmetli-amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlantiriladi. Bunda bolaning faol diqqatini shakllantirish, nutqni anglab eshitish, savol mazmunini to'g'ri tushunish va mantiqiy javob berish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alaliya va og'ir nutqiy rivojlanmaganlik muammosi logopediya hamda maxsus pedagogika fanlarida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. L.S. Volkova tahriri ostida nashr etilgan "Xrestomatiya po logopedii" hamda A.R. Luriya asarlarida alaliya nutq faoliyatining markaziy mexanizmlaridagi buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixonevrologik holat sifatida ilmiy talqin etiladi. V.A. Kovshikov motor va ekspressiv alaliya misolida nutqning leksik-grammatik, fonematik va kommunikativ komponentlarini izchil va tizimli shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Ushbu ilmiy yondashuvlar alaliyani bartaraf etishda uzoq muddatli va tizimli korreksion ishlarning muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham logopedik korreksiya masalalari keng va chuqur yoritilgan. M.Y. Ayupova, L.R. Mo'minova hamda R.Sh. Shomaxmudova ishlarida alaliyali bolalar bilan ishlash jarayonida multimodal yondashuv, predmetli-amaliy faoliyat va o'yin texnologiyalarining yuqori samaradorligi asoslab berilgan. D.R. Babayeva va F. Qodirova bolalar nutqini rivojlantirishda differensial va individual yondashuvni qo'llashning pedagogik ahamiyatini ta'kidlaydi. Mazkur ilmiy manbalar mazkur maqolaning nazariy va metodik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda alaliyali bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, kuzatuv, pedagogik diagnostika, logopedik mashg'ulotlar jarayonini monitoring qilish hamda taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar alaliyali bolalarning nutqiy rivojlanish holatini baholash uchun maxsus testlar, individual suhbatlar va amaliy mashqlar asosida yig'ildi. Olingan natijalar tizimli va differensial tahlil asosida qayta ishlanib, korreksion-logopedik ishlarning nutqiy, psixik va kommunikativ rivojlanishga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri aniqlashtirildi. Zaruratga ko'ra, statistik va sifat tahlili usullaridan foydalanildi.

¹ Ayupova M.Yu. Logopediya: darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.



TAHLIL VA NATIJALAR

Birinci bosqichda olib boriladigan ishlar nutqiy faollikni rivojlantirish, passiv va faol lug'atni shakllantirishga yo'naltiriladi. Ushbu bosqichda dialogik nutq, sodda va qisqa hajmdagi hikoyalar ustida izchil ish olib boriladi. Natijada nutqiy faoliyatning psixofiziologik asoslari va vaziyatli muloqotning dastlabki ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqichda lug'at zaxirasini boyitish hamda jumla tuzilishini murakkablashtirish asosida frazali nutq rivojlantiriladi. Gaplardan foydalanish, ularni grammatik jihatdan to'g'ri jihozlash, dialog va hikoya ustida ishlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Uchinchi bosqichda bolalarda mustaqil nutqni shakllantirishga qaratilgan ishlar olib boriladi. Barcha bosqichlarda nutqiy faoliyatning barcha tarkibiy jihatlari izchil ravishda rivojlantiriladi. Bolalar amaliy mashqlar yordamida so'zlarning gapdagi o'zaro bog'liqligini anglash va ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini egallaydi. Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida morfologik, grammatik va fonematik umumlashmalar hamda farqlash mexanizmlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilib, mexanik mashqlarga nisbatan mazmuni anglashga asoslangan tahlil, kuzatish va umumlashtirish jarayonlariga e'tibor qaratiladi. Asta-sekin nutqda harakat, sifat, predmet va ularning xossalari, munosabat hamda aloqalarni ifodalash orqali nutqiy bayonlarning intellektuallashuv darajasi yuksaladi.

Ko'rgazmali vaziyatlar asosida bolalar tomonidan predmet va harakatlar ajratib olinadi, shu asosda so'z shakllari taqqoslanadi va yangi gaplar tuziladi. Lug'at bilan ishlashda nutqiy va real predmetlar, harakatlar, rasmlar hamda turli vaziyatlarni namoyish etish usullaridan foydalaniladi. Predmetlarni harakatlarga mos holda tanlash, butun va uning qismlarini nomlash (eshik, chiroq, g'ildirak), bir o'zakli so'zlarni aniqlash (bog'–bog'bon), ta'rif asosida predmetni topish, antonim va sinonimlarni, shuningdek kichraytirish va erkalash shakllarini qo'llash orqali lug'at boyitiladi. O'yinchoqlar, mevalar va sabzavotlar kabi mavzular doirasida lug'at egallash bilan bir qatorda grammatik shakllardan foydalanish (ko'plik va birlik, shaxs va son) o'rgatiladi.

Predmetlar bilan amaliy harakatlarni bajarish jarayonida bolalar o'z faoliyatini nutq orqali ifodalashga o'rgatiladi (masalan, sut ichyapman, sutni idishga quyyapman). Ularda savollarga javob berish va mustaqil savol berish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tayanch so'zlar va seriyali rasmlar asosida gap tuzish, predmetlar haqida savollar va topishmoqlar ishlab chiqish, ikki yoki undan ortiq predmetni taqqoslab tavsiflash malakalari rivojlantiriladi. Javob variantlarining xilma-xilligini kengaytirish orqali bolalarda grammatik shakllarni ongli tanlash, so'z va nutq ifoda vositalariga qiziqish uyg'otiladi.

Grammatik malakalarni mustahkamlashda so'z birikmalarini ko'chirish, taqlid qiluvchi, almashtiruvchi va o'zgartiruvchi mashqlardan foydalaniladi. Ushbu mashqlar muloqotga yaqin bo'lgan kommunikativ xarakterga ega. Grammatik tuzilmani egallash jarayonida gaplarning turli modellari bosqichma-bosqich takomillashtiriladi, jumladan: bosh kelishik va moslashgan fe'l (Vali o'tiribdi), bosh kelishik, fe'l va to'g'ri to'ldiruvchi (Bola kitob o'qiyapti), shuningdek ikki bog'liq kelishikli tuzilmalar (Ona qizchaga kitobni berdi).

Mazkur jarayonda bolalarga grammatika bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilmaydi, balki ularni so'z o'zgartirish, so'z hosil qilish va gap tuzish modellari bilan amaliy tanishtirish asosiy maqsad qilib olinadi. Har qanday grammatik kategoriya ustida ish olib borishda bola avvalo logoped tomonidan namoyish etilgan modelni kuzatadi, so'ng taqlid asosida nutqiy faoliyatga jalb etiladi. Shu tariqa, bog'langan nutqda grammatik shakllarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalari shakllantirilib, impressiv va ekspressiv agrammatizm bosqichma-bosqich bartaraf etiladi.

Grammatik qurilishni egallash lug'at boyligini oshirish va gaplarni nutq birligi sifatida amaliy o'zlashtirish jarayoni bilan bir vaqtda olib boriladi. Grammatik tuzilmani o'zlashtirish eshitish asosidagi differentsatsiya, ya'ni ajratish, tahlil qilish va birlashtirish jarayonlari, shuningdek nutqda muayyan til birliklaridan – qo'shimchalar, ko'makchilar va boshqa grammatik vositalardan qachon hamda qanday foydalanish zarurligi haqidagi nutqiy tasavvurlarni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu jarayonda suhbatlar, predmet va harakatlarni kuzatish, o'yin faoliyati hamda barqaror verbal namunalarga tayanish samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Didaktik materiallar, pedagogning nutqiy namunalari, mashqlarni tizimli tashkil etish, shuningdek bolalarning amaliy muloqotini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maishiy vaziyatlarni yaratish nutq o'rgatishning muhim vositalari hisoblanadi.

Olib boriladigan ishlarning asosiy vazifasi bolada muloqot jarayoni va muloqot vositalarini izchil shakllantirishdan iborat. Shaxslararo muloqot dastlab dialog shaklida rivojlanib, keyinchalik bosqichma-bosqich monologik nutqqa o'tiladi. Nutqiy muloqot tashabbusi asta-sekin logopeddan bolaga o'tib boradi. Nutqiy amaliyot jarayonida ongli farqlash, morfologik elementlarni ajratish, umumlashtirish va sintaktik konstruksiyalar bilan ishlash oldindan ta'minlanadi. Bolaning diqqati mazmun va tovush birikmalaridagi farqlarga qaratiladi, masalan: qo'lni sila – qo'l bilan sila, qalamni chiz – qalam bilan chiz. Gap ustida ishlashda asosiy fikrni ajratish, mantiqiy urg'uni ko'chirish, savol-javob asosidagi mashqlarni tashkil etish, gaplarning kengaytirilishi va qayta tuzilishini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinonimik almashtirish usulidan foydalanish orqali bir fikrni turli til vositalari yordamida ifodalashga o'rgatiladi. Bunday mashqlar bolalarda nutq sezgirligini rivojlantiradi, lug'at zaxirasini faollashtiradi hamda grammatik-sintaktik modellarni mustahkamlaydi. Bog'langan nutq ustida olib boriladigan ish bayon qilish motivini shakllantirish va mukammal nutqiy dastur tuzishdan boshlanadi. Bayon qilish rejasi sifatida sujetli rasmlar ketma-ketligi, ramziy belgilar, epizodli yoki alohida predmetlar aks etgan rasmlar qo'llaniladi. Bolalar rasmlarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiradi, savollarga javob beradi, tayanch so'zlar asosida avval logoped yordamida, so'ng mustaqil hikoya tuzadi. Natijada mustaqil monologik nutq rivojlanib, bolalarda yaxlit matn hamda alohida gaplar tuzish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Alaliyali bolalarni savodga o'rgatish nisbatan erta boshlanib, bu jarayon ularning nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O'qilgan va yozilgan materiallar nutqiy faoliyatni mustahkamlab, o'qish va yozish orqali bolaning o'z nutqini nazorat qilishi hamda tuzatib borishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, savodga o'rgatish murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, maxsus metodik yondashuvlarni talab etadi. Yozma nutqni o'zlashtirish jarayonida ayrim bolalarda ikkilamchi disgrafiya va disleksiya belgilari kuzatilishi mumkin. Shu sababli maktab yoshidagi alaliyali bolalar uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim muassasalarida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq rivojlanishidagi og'ir buzilishlar bolalarning og'zaki muloqotini chegaralashi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin. Biroq nutq rivojlanmaganligining yengil darajasida bolalar ommaviy maktablarda o'qishlari, parallel ravishda logopedik punktlarda mashg'ulotlar olib borishlari mumkin. Logopedik mashg'ulotlar davomida nutqdagi uzilishlar bartaraf etilib, muloqot va umumlashtiruvchi funksiyalar rivojlantiriladi. O'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, bolalarning bilish faolligini oshirish va ta'limga ijobiy munosabatni shakllantirish asosiy maqsad qilib olinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari va tibbiy muassasalar hamkorligida amalga oshiriladi. Bu jarayonda tibbiy va pedagogik xodimlarning kelishilgan faoliyati ta'minlanib, yagona nutqiy rejim yaratiladi. Tarbiyachilar logopedik ishni tayyorlaydi yoki mustahkamlaydi, ya'ni lug'atni boyitish, tushunchalarni shakllantirish, nutqiy muloqotni rivojlantirish va bog'langan nutq ustida ishlaydi. Bolalar logopedik mashg'ulotlarda so'z hosil qilish, so'z o'zgartirish, gap va bog'langan matn tuzish ko'nikmalarini egallab, fonematik idrok va tovush tahlilini rivojlantiradi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, alaliyani bartaraf etish muddati turlicha bo'lishi mumkin: ayrim tadqiqotchilar bir necha oy yetarli deb hisoblasalar, boshqalari bu jarayon yillar davom etishini ta'kidlaydi. V.K. Orfinskaya va L.V. Melexova fikriga ko'ra, ishni boshlash va davom ettirish muddati har bir holatda individual tarzda belgilanib, nutqiy buzilish darajasi, bolaning shaxsiy xususiyatlari va rivojlanish sharoitlari hisobga olinishi lozim. Tadqiqotlar asosida 3–4 yosh davri korreksion ishlarni boshlash uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda alaliyada ijobiy dinamika nuqsonni erta aniqlash, ikkilamchi buzilishlarning oldini olish, ontogenez qonuniyatlarini hisobga olish, nutqning barcha tarkibiy qismlariga tizimli ta'sir ko'rsatish hamda differensial yondashuvni qo'llash orqali namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alaliyani korreksiyalash bo'yicha olib borilgan mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkin, ushbu murakkab nutqiy rivojlanmaganlik holatini bartaraf etishda kompleks, tizimli, uzoq muddatli va individual yondashuvni qo'llash zarur. Alaliya faqat nutqiy buzilish emas, balki psixologik, pedagogik va nevrologik jihatlarni qamrab oluvchi ko'p qirrali muammo bo'lib, uni samarali hal etishda logoped, psixonevrolog, pedagog va tarbiyachilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirish jarayonida motivatsion va emotsional omillar, predmetli-amaliy faoliyat, ko'rgazmali metodlar, o'yin texnologiyalari hamda multimodal yondashuvning qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, bolaning individualligini, shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda faoliyat orqali nutqiy operatsiyalarni shakllantirish, leksik va grammatik vositalarni egallash, dialogik va monologik nutqni rivojlantirish, tafakkur va nutqni bir butun jarayon sifatida takomillashtirish alaliyani bartaraf etishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Erta tashxis qo'yish, logopedik-korreksion ishlarni o'z vaqtida boshlash, tizimli metodik yondashuvdan foydalanish bolani maktab ta'limiga tayyorlash hamda uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, logopedik ishlar nafaqat nutqni to'g'rilashga, balki bolaning shaxsiy, aqliy, emotsional va harakat faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim pedagogik-tibbiy jarayon sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayupova M.Yu. Logopediya: darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Хрестоматия по логопедии. Т. 1 / под ред. Л.С. Волковой, В.И. Селиверстова. – М., 1997.
3. Филичева Т.Б. и др. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. – М.: Изд-во “ГНОМ и Д”, 2000.
4. Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы её преодоления. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 12 с.
5. Mo'minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Jalolova Z.M., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 157 b.
6. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. – 560 b.
7. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
8. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.
9. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 432 b.
10. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Niso Poligraf, 2017. – 168 b.
11. Qodirova F., Qodirova R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Istiqol, 2006. – 248 b.
12. Nurkeldiyeva D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika. Defektologiya. – Toshkent: Vneshinvestprom, 2019. – 418 b.
13. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 320 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.